

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

Полвонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР .....	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИY ХИМОЯ QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI .....	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР .....	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI .....	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....	37-42

## **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУФУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ .....	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ .....	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI .....	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS)DAN FOYDALANISH .....	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ .....	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ .....	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ .....	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LЛАRI .....	120-126

*Temirova Feruza Sagdullayevna*

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK ..... 127-132

*Sharipova Shaxzoda Xasanovna*

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 133-138

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*Alimova Shahniza Hamidovna*

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА ..... 139-147

*Asrakulova Adiba Nabieva*

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ ..... 148-154

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA ..... 155-160

*Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi*

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI ..... 161-165

*Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi*

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS ..... 166-170

*Djurakulova Elmira Suyunova*

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ..... 171-177

*Dalieva Madina Khabibullaevna*

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR ..... 178-183

*Жўраева Ирода Ахмедовна*

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ ..... 184-189

*Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna*

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI ..... 190-193

*Irgasheva Shoxida Sadriiddinovna*

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI ..... 194-200

*Tursunova Zarina Farxodovna*

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) ..... 201-205

*Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich*

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES ..... 206-212

*Radjabova Hafiza Shukrulloevna*

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI ..... 213-220

*Avezova Dilovar Salimovna*

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI ..... 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION .....	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS .....	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT .....	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI .....	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS .....	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилуу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS .....	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA .....	276-282

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI .....	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİNG MUHİM OMİLİ .....	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI .....	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI .....	305-309

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI .....	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI .....	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM .....	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI .....	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI .....	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI .....	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI .....	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR .....	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI .....	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA .....	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR .....	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH .....	389-393

Jumaniyozova Muhayyo Tajiyevna,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
[m.jumaniyozova@uzswlu.uz](mailto:m.jumaniyozova@uzswlu.uz)

## RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rivojlantiruvchi ta'limga asosiy nazariyalar qisqacha tahlili, ta'limga oluvchining analitik qobiliyatlarini rivojlantirishda uning o'rni, asosiy prinsplari, talablari va xususiyatlari, maktabgacha ta'limga faoliyatli yondashuvning mohiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** rivojlantiruvchi ta'limga, analitik qobiliyat, faoliyatli yondashuv.

Jumaniyozova Muhayyo Tajiyevna,  
doctor of Pedagogical Sciences, UzSWLU

## THE PROBLEMS OF FORMING THE ANALYTICAL ABILITIES OF THE STUDENT IN THE BASIC THEORIES OF DEVELOPMENTAL LEARNING

**Abstract.** This article will consider a brief analysis of the main theories of developmental learning, its role in the development of the analytical abilities of the student, the basic principles, requirements, and features, and the essence of the activity approach in preschool education.

**Keywords:** developmental learning, analytical skills, activity-based approach.

Жуманиязова Мухайе Тажиевна,  
доктор педагогических наук, УзГУМЯ

## ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ АНАЛИТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ОБУЧАЮЩЕГОСЯ В ОСНОВНЫХ ТЕОРИЯХ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБУЧЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье будет рассмотрен краткий анализ основных теорий развивающего обучения, его роль в развитии аналитических способностей обучающегося, основные принципы, требования и особенности, сущность деятельностного подхода в дошкольном образовании.

**Ключевые слова:** развивающее обучение, аналитические способности, деятельностный подход.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N50>

**Kirish.** Rivojlantiruvchi ta'limga asosiy nazariyasi 1950 - yillarning oxiri-1970-yillarida yaratilgan bo'lib, unga L.S. Vigotskiyning o'rganish va rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar nazariyasi, L.V. Zankovning didaktik nazariyasi va D. B. Yelkonin — V.V. Davidovning mazmunni umumlashtirish va o'quv faoliyatini shakllantirish nazariyasi kiradi.

"Rivojlantiruvchi ta'lim" atamasini V. V. Davidov pedagogik amaliyotga kiritgan bo`lib, yosh maktab o'quvchilarining ta'limi va rivojlanishi o'rtaqidagi bog'liqlik muammosini ilmiy va amaliy hal etishda an'anaviy boshlang'ich ta'limning mazmuni va usullarini o'zgartirish bolalarning rivojlanishiga ma'lum bir ijobjiy ta'sir ko'rsatishiga asoslanib, L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy psixologiya nazariyasiga va A. N. Leontevning (Ivannikov, 2018) psixologik faoliyat nazariyasiga tayanib rivojlantiruvchi ta'limning ilmiy-amaliy g`oyasini yaratgan.

Ko'p yillik eksperimental tadqiqotlar natijasida D. B. Yelkonin va V. V. Davidov rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish shartlarini aniqladi va rivojlantiruvchi ta'lim faoliyati nazariyasini ishlab chiqqan.

An'anaviy ta'limdan farqli ravishda V. V. Davidov, zamonaviy sharoitda mакtab yoshidagi o'quvchilarda nazariy fikrlash va xatti-harakatlarni boshqarishni rivojlantirish orqali aniq ta'lim vazifalarini hal qilish mumkinligini asoslab bergan. Uning fikricha, "an'anaviy boshlang'ich ta'lim ko'pchilik boshlang'ich mакtab o'quvchilarining to'liq rivojlanishini ta'minlamaydi. An'anaviy boshlang'ich ta'lim bolalar bilan ishlashda proksimal rivojlanishning zarur zonalarini yaratmaydi, balki asosan maktabgacha yoshda paydo bo'lgan va rivojlnana boshlagan aqliy funksiyalarni o'zgartiradi va kuchaytiradi (hissiy kuzatish, yemperik fikrlash, utilitar xotira va boshqalar.). Muallifning fikricha, ta'lim proksimal rivojlanishning zarur zonalarini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak, shunda ta'lim natijasida hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalar oxir-oqibat aqliy neoplazmalarga aylanadi" [1.76-77].

V. V. Davidov va D. B. Yelkoninlarning rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiysi mohiyati o'quv fanlari mazmuni va ularni o'quv jarayoniga joylashtirish mantig'i (usullari) bilan bog'lanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ma'lumri, o'rganish va rivojlanish o'rtaqidagi munosabatlar muammosini hal qilishda L. S. Vigotskiy, bolaning aqliy funksiyalari genezisining umumiyoq qo'llaniladigan qonuniga asoslangan. Bolaning rivojlanishi uning ta'lim jarayonida, kattalar va o'rtoqlar bilan muloqotida shakllanadigan "proksimal rivojlanish zonalari" (Александровна, 2008.) orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv shuni anglatadiki, bola yangi harakatni faqat boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirishish asosida bajara oladi. Yangi aqliy funksiya uni tashkil etishni o'rganadigan jamoaviy faoliyatda bajarilishining o'ziga xos "individual davomi" bo'ladi. O'rganish rivojlanishning ajralmas zarur va universal vaqt hisoblanadi. L.S. Vigotskiy o'rganish va rivojlanish o'rtaqidagi bog'liqlik gipotezasini shakllantirgan bo`lib, u o'z gipotezasini asoslashda inson aqliy funksiyalari rivojlanishining asosi genetik qonuni mazmunini aniqlaydi va bu bog'liqlik olim taklif qilgan nazariyaning asosi bo`lib xizmat qiladi. U bolalarning rivojlanishidagi eng yuqori aqliy funksiyani birinchisi jamoaviy faoliyat sifatida, ikkinchisi individual faoliyat sifatida paydo bo'lishini asosladi.

L. V. Zankovning (Шафростова, 2023) didaktik tizimi eksperimental didaktika laboratoriyasida mакtab o'quvchilarining umumiyoq aqliy rivojlanishiga yordam beradigan didaktik tizimni ishlab chiqilishi bilan izohlanadi. L. V. Zankovning didaktik tizimi darsning moslashuvchan tuzilishiga ega bo'lishini talab etadi hamda mashg'ulotda o'qilgan va ko'rilib narsalar, tasviriy san'at, musiqa, ish, didaktik o'yinlar, o'quvchilarning intensiv mustaqil faoliyati, kuzatish, taqqoslash, guruhash, tasniflash, naqshlarni aniqlashtirish, xulosalarni mustaqil shakllantirish asosida jamoaviy izlanish orqali bolalarning fikrlash, kuzatish va amalda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Yelkonin-Davidov tizimida rivojlanayotgan ta'lim o'quvchilarning nazariy tafakkurini shakllantirishi kerak, ya'ni ta'lim nafaqat faktlarni yodlashga, balki ular o'rtasidagi munosabatlar va sababiy munosabatlarni tushunishga ham qaratilishi kerak degan g'oyaga asoslanadi. Bu mualliflar tomonidan nazariy fikrlash - shaxs tomonidan narsa, hodisa, tushunchaning kelib chiqishi, ushbu kelib chiqish shartlarini kuzatish qobiliyati, nima uchun bu tushunchalar, hodisalar yoki narsalar u yoki bu shaklga ega bo'lganligini aniqlash, o'z faoliyatida takror ishlab chiqarish qobiliyati sifatida tushuntiriladi.

Yelkonin — Davidov (Elkonin, 1998) tizimidagi o'quv fanlarining mantig'i va mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish uchun asosdir (bu o'quv faoliyatini shakllantirish nazariyasi va uning predmetiga asoslanishi kerak). Bunday holda, o'quvchida umuman unchalik ko'p bilimlarni emas, balki umumbashariy ta'lim harakatlarini shakllantirish, o'quvchida nazariy fikrlashni, analitik qobiliyatlarni rivojlanirish, o'quvchida ilmiy bilimlar mantig'ini "mavhumdan konkretga" tamoyili asosida rivojlanirishga asoslanishi lozim.

O'quv faoliyatini shakllantirish nazariyasi va predmeti rivojlanayotgan ta'lim muhitida tahlil qilish, rejalashtirish va aks yettirish orqali maktab o'quvchilarida nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Rivojlaniruvchi ta'lim nazariyasi inson tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish haqida emas, balki muayyan ta'lim faoliyati shaklida yuzaga keladigan assimilyatsiya haqida fikr yuritishni talab etadi. Bu assimilyatsiya jarayonida o'quvchi nazariy bilimlarni yegallaydi, ularning mazmunini xilma-xillikning birligi sifatida qaraydilar.

Rivojlaniruvchi ta'limning tamoyillari:

- ta'limning subyektivligi prinsipi;
- yetakchi faoliyat turlarini hisobga olish prinsipi va ularning o'zgarishi qonunlari;
- rivojlanishning nozik davrlarini hisobga olish prinsipi;
- zudlik bilan rivojlanish zonasini aniqlash va unda bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil yetish prinsipi;
- barcha turdag'i faoliyatni yuqori motivatsiyalash prinsipi;
- barcha faoliyatning majburiy refleksivligi (Михайлова, 2023)

Har qanday o'quv fanini o'zlashtirishni boshlashda o'quvchilar o'qituvchi yordamida o'quv materialining mazmunini tahlil qiladilar, undagi ba'zi bir boshlang'ich umumiylar munosabatni aniqlaydilar, tanlangan boshlang'ich umumiylar munosabatni ramziy shaklda o'rnatib, o'rganilayotgan o'quv materialini tahlil qilishni davom yettirib, o'quvchilar o'qituvchining yordami bilan ushbu dastlabki munosabatlarning turli xil ko'rinishlari bilan tabiiy bog'liqligini ochib berishadi va shu bilan o'rganilayotgan mazmunni umumlashtirishadi. Navbatdagi bosqichda o'quvchilar mazmun bilan bog'liq abstraksiyalar va umumlashmalardan foydalanib, o'qituvchining yordami bilan izchil ravishda boshqa, aniqroq abstraksiyalarini yaratadilar va ularni yaxlit o'quv faniga birlashtiradilar.

Bilimlarni o'rganishning bu usuli ikkita xarakterli xususiyatga ega. Birinchidan, o'quvchilarning fikri maqsadli ravishda umumiyyadan xususiyga o'tadi. Ikkinchidan, assimilyatsiya o'quvchilar tomonidan ular o'zlashtirgan tushunchalar mazmunining kelib chiqish shartlarini aniqlashga qaratilgan.

**Muhokama.** Nazariy tushunchani faqat munozara jarayonida o'rganish mumkin. Rivojlaniruvchi ta'lim mohiyatida bolalarning ta'limiy faoliyatida umumiyyadan xususiytg'a, mavhumdan konkretgacha bo'lgan ilmiy bilimlarni shakllanish jarayoni asos sifatida olingan.

Maktab o'quv fanlari maktab o'quvchilari o'rtasida empirik jihatdan farq qiladigan o'ziga xos tarkibga ega bo'lgan nazariy fikrlashni shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak. Bunda o'quvchi nafaqat faktlar bilan tanishishga, balki ular o'rtasidagi munosabatlarni bilishga, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishga va munosabatlarni o'rganish obyektiga aylantirishga qaratilishi lozim.

Rivojlantiruvchi ta'lism g'oyasi shundan iboratki, o'rganish bolaning mehnat faoliyati ko'rinishi bo'lib, uning asosi bola, bilim bola rivojlanishining bir vositasi sifatida ishlaydi. Rivojlantiruvchi ta'lism nazariyasi asoschilarini o'z tadqiqotlarida rivojlantiruvchi ta'lism nazariyasining quyidagi qoidalarini isbotladilar:

A) bola inson faoliyati barcha turlarining subyektidir;

B) aqliy jarayonlar faoliyat natijasi sifatida rivojlanadi;

S) yetakchi faoliyat turi sifatida bolaning har tomonlama va intensiv rivojlanishi tizimi, bolaning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning aqliy va shaxsiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish.

Rivojlantiruvchi ta'lism shaxsni jamiyat, shaxs va davlat manfaatlari yo'lida tarbiyalashning maqsadli jarayoni bo'lib, uning natijasi tizimlashtirilgan bilimlarni shaxs tomonidan o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Ta'lism oluvchining analitik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtirish, o'rganilayotgan materialni mazmunli tahlil qilish, rejalarashtirish asosida bolaning bevosita rivojlanishi zonasini uchun sharoit yaratadigan ta'lism muhiti sifatida rivojlantiruvchi ta'lism bolaning proksimal rivojlanish zonasini nazarda tutadi. Proksimal rivojlanish bu o'rganish, kattalar bilan birgalikdagi faoliyat va tengdoshlari bilan muloqot natijasida bola tegishli yoshda erisha oladigan haqiqiy va potensial rivojlanish o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi psixologik xususiyat bo'lib, uni birinchi marta L. S. Vigotskiy o'z tadqiqotlarida keltirib o'tadi.

Ta'lism oluvchilarning dunyoqarashi, axloqi, motivlarga bo'ysunishi, xulq-atvordagi o'zboshimchaliklarni shakllanishida bolaning analik qobiliyatlarini asosiy rol o'ynaydi.

Jismoniy va aqliy rivojlanishning tez sur'ati, nutqni shakllantirish, obyektlar bilan harakatlar, "men" obrazi, dastlabki ijtimoiy tajribani egallash, muloqotga bo'lgan ehtiyoj tengdoshlar va kattalarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularga taqlid qilish natijasi sifatida shakllanadi.

Bunda faoliyat yondashuvining nazariyasi tarafдорлари (A.V. Zaporozes, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn va b.) maktabgacha ta'limga bolaning subyektivligini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida qaraydi. Bunda o'quv ishlarining shakllari, texnikasi va usullaridan foydalanishda bolalar faoliyati muayyan harakatlar, faoliyat turlarini aniq bajarish uchun dasturlashtirilmaydi, balki ushbu faoliyat turlarini tanlash, baholash, dasturlash, loyihalashtirishga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirishga yo'naltiriladi, shu asosda bolaning tabiatiga mos keladigan o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini anglash ehtiyojlarini qondiradi.

Maktabgacha ta'limga faoliyatli yondashuvining mohiyati umumiy shaklida bolaning hayotiy faoliyatining umumiy kontekstida maqsadli ta'lism faoliyatini tashkil etish va boshqarishni anglatadi, qiziqishlarning yo'nalishi, ta'lism va tarbiyaning ma'nosini tushunish uchun ta'limga mohiyati asosiy e'tiborni nafaqat faoliyatga, balki birgalikda ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatiga

qaratiladi. O'qituvchi axloqiy va ma'naviy madaniyatning tayyor namunalarini bermaydi, balki ularni o'quvchilar bilan birgalikda yaratadi va rivojlantiradi.

Bu faoliyat jarayonida qadriyatlar va hayot normalarini birgalikda izlash ta'lim jarayonining mazmunini tashkil etadi. Maktabgacha ta'limda faoliyatga asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogikaning bolani o'quv jarayonining obyektidan uning predmetiga aylantirish zarurligi haqidagi asosiy g'oyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Natijalar.** Faoliyatli yondashuvining asosiy tushunchalari "predmet faoliyati", "o'yin faoliyati", "o'quv faoliyati", "muloqot", "mustaqil faoliyat", "birgalikdagi faoliyat", "ma'naviy faoliyat" kabi tushunchalar hisoblanadi.

"Shaxs", "ichki potensial", "o'z-o'zini anglash", "o'z taqdirini o'zi belgilash", "hayot ma'nosi", "mavzu", "subyektivlik", "shaxsnинг subyektiv xususiyatlari" kabi tushunchalar insonning muloqot qilishi, o'zaro ta'sir qilishi, shaxsiy aloqalarni o'rnatishi, o'zaro tushunish, muloqotga kirishish va uni saqlab qolish qobiliyatida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida subyektning o'zini anglashiga qaratilgan yetakchi tushunchalar - "o'zini hurmat qilish", "o'zini tutish" va boshqalar bilan ifodalanadi (PsyJournals.ru , 2008).

Ta'lim oluvchining analitik qobiliyatlarini shakllantirishda ta'lim maydoni, qo'llaniladigan ta'lim metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish shakllaridan tortib, ta'lim oluvchining faoliyat maydoni va uning holati, ta'lim mazmuni, ijtimoiy-madaniy ta'lim makoni, ta'lim vositalari, o'qitilayotgan fanning amaliyot maydoni va shaxsiy rivojlanishni boshqarish muhim hisoblanadi.Nazariy fikrlash deganda shaxs tomonidan narsa, hodisa, tushunchaning kelib chiqishi, nima uchun bu tushunchalar, hodisalar yoki narsalar u yoki bu shaklga yega bo'lganligini aniqlash, o'z faoliyatida qo'llash qobiliyati tushuniladi.

Rivojlantiruvchi ta'limda analik qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilar:

- deduksiya;
- tahlil;
- abstraksiya;
- nazariy umumlashtirish;
- konkretlashtirish;
- aks yettirish.

Ta'lim oluvchining analik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik vaziyat va shaxs faoliyatining barqarorligiga ham bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki zamonaviy maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar qanday o'ynashni bilishmaydi, ya'ni ularda maktabgacha yoshdagi yetakchi faoliyat turi kam rivojlangan. Bu maktabgacha yoshning oxiriga kelib, yaxshi rivojlangan o'yin faoliyatida paydo bo'ladigan psixologik ustanovkalarning paydo bo'lmasligiga olib keladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga muvofiq, ta'lim oluvchilarda analitik qobiliyatlarni rivojlantirishda pozitsion amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. Bunday amaliy mashg'ulotlar guruh va yalpi ish shakllarini birlashtirgan holda birgalikda taqsimlangan faoliyatga asoslanganligi, ta'lim mazmunini o'rganish vositalarini bolalarning imkoniyatlariga moslashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda sxemalar, jadvallar va tezislar tuzishga qaratilgan mashqlar, tizimli fikrlashga yo'naltirilgan mantiqiy sxemalar va tushunchalardan foydalanilsa, ta'lim oluvchilarda asta-sekinlik bilan mantiqqa, tartiblilikka va muhim narsani

ta'kidlash qobiliyatiga o'tish, mazmunli pozitsiyalar bilan madaniy harakat rejimini ifodalash shakllanib boradi.

**Xulosa.** Rvojlantiruvchi ta'limda darsning xususiyatlari jamoaviy aqliy faoliyat, dialog, munozara va bolalarning ishbilarmonlik muloqotini o'z ichiga oladi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim bilan emas, balki savol bilan murojaat qilib, o'quvchilar bilimlarni egallashlari uchun qo'yilgan o'quv muammollarini hal qilish talab etiladi.

Rivojlantiruvchi ta'limning eng muhim jihatni uning ijodiy tabiatini bilan asoslanadi. Bola boshqa birovning tajribasini o'zlashtirishi emas, balki o'zida mavjud ijodiy qobiliyatidan foydalangan holda o'zini kashf etishi kerak. Analistik qobiliyat bilan birga shakllanadigan ijodiy faoliyat bolaga o'z imkoniyatlarini o'z vaqtida to'liq ro'yobga chiqarishga, o'zida mavjud bo'lgan barcha qobiliyatlarni olib berish imkoniyatini berishi lozim.

Bunda jamoaviy ish va shaxslararo muloqot bir xil darajada muhim bo'lib, o'tkazilgan tadqiqotlarning natijasi shuniko'satdiki, kattalar bilan birgalikda ishlash bolaga madaniyatni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ta'lim muassasalarining pedagogik amaliyotida faoliyatli yondashuv va rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasidan foydalanish muammosini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlantiruvchi ta'lim nafaqat pedagogik afzalliklarga ega, balki ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlarini individuallashtirish, ularning mazmuni va tuzilishini bolalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida jismoniy, ijtimoiy-shaxsiy, kognitiv, nutq va badiiy-estetik hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni o'z ichiga olishi kerak.

Bolada ta'lim faoliyatiga chinakam qiziqishini uyg'otish, unda maqsadlarni belgilash, ularga erishish yo'lini rejalashtirish va olingan natijalarni tanqidiy baholash qobiliyatini shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchining ongini, uning e'tiqodini, axloqiy qadriyatlarini va ideallarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor berishi lozim.

### **Adabiyotlar//Литература/References:**

- Elkonin, D. (1998). *Развитие устной и письменной речи учащихся*. Moskva, Rossiya: INTOL. ISBN: 5-89404-033-7.
- Ivannikov, V. (2018). Representations of the nature and origin of human psyche in the early works of A.N. Leontiev. *National Psychological Journal*. 3. 98-103. 10.11621/npj.2018.0309., 98-103. 10.11621/npj.2018.0309.
- PsyJournals.ru . (2008, 10 10). Retrieved from Портал психологических публикаций PsyJournals.ru: [https://psyjournals.ru/journals/pse/archive/2008\\_n2/Shiyan](https://psyjournals.ru/journals/pse/archive/2008_n2/Shiyan)
- Александровна, Ш. О. (2008.). [https://psyjournals.ru/journals/pse/archive/2008\\_n2/Shiyan](https://psyjournals.ru/journals/pse/archive/2008_n2/Shiyan). *Психологическая наука и образование*, Том 13. № 2. С. 9–17 (online).
- Михайлова, Е. В. (2023, 11 02). [https://spravochnick.ru/pedagogika/principy\\_obucheniya/principle\\_razvivayuscheho\\_obucheniya/](https://spravochnick.ru/pedagogika/principy_obucheniya/principle_razvivayuscheho_obucheniya/). Retrieved г. Ташкент 13.04, 2024, from <https://spravochnick.ru/>: [https://spravochnick.ru/pedagogika/principy\\_obucheniya/principle\\_razvivayuscheho\\_obucheniya](https://spravochnick.ru/pedagogika/principy_obucheniya/principle_razvivayuscheho_obucheniya)
- Шафростова, Н. Н. (2023, 03 16). *Обзор УМК Л.В. Занкова с точки зрения соответствия ФГОС*. Retrieved from <https://lbz.ru/>: <https://pedsovet.su/publ/179-1-0-3291>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº S/2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).